INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

BARQAROR RIVOJLANISH TAMOYILLARIGA (ESG) ASOSLANGAN HOLDA MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARI BAZASINI MUSTAHKAMLASH

Zaylobiddinov Mirkomiljon Abdulhamid o'g'li
mirkomil120819992gmail.com
TDIU magistranti

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida mahalliy byudjet daromadlari bazasini mustahkamlash masalasi Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) va ESG tamoyillari (Ekologik, Ijtimoiy, Boshqaruv) asosida tahlil qilinadi. Unda hududiy moliyaviy mustaqillik, byudjet tushumlarini oshirish va resurslarni samarali boshqarish zarurligi ta'kidlanadi. O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan strategiyasi, yashil taksonomiya modeli, shuningdek yer, mol-mulk va foyda solig'i hamda ekologik yig'imlar asosida shakllanadigan mahalliy daromadlar tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya, soliq hisobotlarining avtomatlashtirilishi va elektron xizmatlarning kengayishi natijasida byudjet tushumlari o'sayotgani ko'rsatilgan. Shuningdek, o'zini o'zi band qilganlar sonining ortishi, kichik biznesga soliq yengilliklari va davlat-xususiy sheriklik orqali yangi daromad manbalarini shakllantirish taklif etilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy byudjet, daromadlar bazasi, barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM), ESG tamoyillari, moliyaviy mustaqillik, soliq tushumlari, raqamli transformatsiya, yashil taksonomiya, davlat-xususiy sheriklik (DXSh), elektron soliq nazorati, fiskal siyosat, hududiy moliyalashtirish, o'zini o'zi band qilganlar, soliq bazasi, mahalliy iqtisodiy barqarorlik.

ABSTRACT: This article analyzes the issue of strengthening the local budget revenue base in the Republic of Uzbekistan through the lens of the Sustainable Development Goals (SDGs) and ESG principles (Environmental, Social, and Governance). It emphasizes the importance of ensuring regional financial independence, increasing budget revenues, and managing resources efficiently. The study examines Uzbekistan's national strategy up to 2030, the green taxonomy model, and local revenue sources such as land, property, and profit taxes, along with environmental fees. It also highlights how digital transformation, automation of tax reporting, and the expansion of electronic services are contributing to the growth of budget revenues. Additionally, the article proposes the development of new revenue sources through tax incentives for small businesses, support for the self-employed population, and public-private partnership projects.

Keywords: local budget, revenue base, Sustainable Development Goals (SDGs), ESG principles, financial independence, tax revenues, digital transformation, green taxonomy, public-private partnership (PPP), electronic tax control, fiscal policy, regional financing, self-employment, tax base, local economic stability.

KIRISH. Bugungi global iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida mahalliy darajada moliyaviy mustaqillikni ta'minlash va byudjet daromadlarini barqaror shakllantirish masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) mahalliy darajada moliyaviy resurslarni

shakllantirishda keng ko‘lamli islohotlar va tizimli yondashuvlarni talab qilmoqda. 1Bu tamoyillar O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan rivojlanish strategiyasida ham o‘z ifodasini topgan. Mamlakatda mahalliy byudjet daromadlarining mustahkam va muvozanatli shakllanishi, ularning barqarorligini ta’minlash borasida kompleks choralar ko‘rilmoqda. Xususan, O‘zbekiston hukumati tomonidan 2030-yilgacha bo‘lgan milliy rivojlanish strategiyasini BRM bilan uyg‘unlashtirish yo‘lida qabul qilingan siyosiy va institutsional qarorlar bevosita hududiy byudjet siyosatining barqaror asoslarda shakllanishiga xizmat qilmoqda. Bu orqali mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy mustaqilligi, o‘z daromadlarini shakllantirishdagi vakolati va mas’uliyati ancha kengaymoqda. 2018-yilda hukumat tomonidan tasdiqlangan 2030-yil kun tartibi doirasida barqaror rivojlanish yo‘nalishlariga muvofiq 16 ta milliy maqsad, 125 ta konkret vazifa va 206 ta ko‘rsatkich belgilangan bo‘lib, ular hududiy darajadagi byudjet rejalashtirish, daromadlar bazasini kengaytirish va moliyaviy monitoring jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Bu indikatorlar yordamida mahalliy byudjetlar daromadlarining o‘sishini nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlik mezonlari asosida ham baholash imkoniyati yaratilmoqda. Mahalliy darajadagi BRMga asoslangan yondashuvlar — xususan, yashil iqtisodiyot, ijtimoiy tenglik va boshqaruvdagi shaffoflikni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar — byudjetga tushumlar hajmini oshirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish va investorlar uchun ishonchli muhit yaratish orqali daromadlarning barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu esa o‘z navbatida, mahalliy byudjetlarning markaziy byudjetga qaramligini kamaytirish va moliyaviy o‘zini o‘zi ta’minlash darajasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida mahalliy moliyaviy mustaqillikni kuchaytirish va byudjet daromadlari bazasini kengaytirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hududlar daromad salohiyatining ortishi nafaqat iqtisodiy o‘sishning qo‘zgatuvchi omili, balki barqaror ijtimoiy taraqqiyot, aholi turmush darajasini yaxshilash va bandlik muammolarini hal etishda muhim moliyaviy tayanch sifatida maydonga chiqmoqda. Shu boisdan, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash, uni barqaror va uzoq muddatli rivojlanishga yo‘naltirish — bugungi davrda davlat moliyasini boshqarishning ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 52-moddasida belgilanishicha, 2Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari bir qator soliqlar, yig‘imlar, jarimalar, mulkdan olinadigan daromadlar, shuningdek, respublika byudjetidan ajratiladigan transfertlar hisobidan shakllantiriladi. Bunda foyda solig‘i, daromad solig‘i, yer va mol-mulk soliqlari, aksizlar, suv va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlar, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslardan tushadigan qaytarilmas mablag‘lar asosiy manbalarni tashkil etadi. Mahalliy byudjet daromadlarining muvozanatli shakllanishi, o‘z navbatida, hududiy iqtisodiy faollik, soliqqa tortish bazasi va boshqaruv mexanizmlarining samaradorligiga bevosita bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mahalliy byudjetlar daromad qismini shakllantirishda ularning tarkibiy tuzilmasi, moliyaviy manbalari va mahalliy hokimiyat hamda moliya tizimi xususiyatlaridan kelib chiqib turli metodik yondashuvlar mavjud. Byudjet tizimi, byudjetlararo munosabatlarning nazariy va amaliy asoslari, mahalliy byudjetlar daromadlarining shakllanishi, ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlash hamda daromadlar bazasini kengaytirish masalalari bo‘yicha bir qator nufuzli olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

1 https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs

2 O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03/25/1038/0188-son

Jumladan, rossiyalik olimlardan A.M. Babich, V. Vinogradova, Ye.V. Orlova, Yu.S. Dolganova, kabilarning ishlari e'tiborga molikdir3. Shu bilan birga, mazkur yo'nalish bo'yicha o'zbekistonlik olimlar – M. Alimardonov, A. Vahobov, T. Malikov, N. Haydarov, O. Olimjonov, A. Jo'rayev, A. Mamanazarov, Sh. Toshmatov, B. Toshmurodova, Q. Yahyoev, N. Qo'ziyeva, B. Abibullaev, J. Yesmurzayev, S. Jubaev, A. Mamanazarov, A. Suvonov, Q. Tojiboyeva, H. Qobulov, X. Qurbanov, A. Hayriddinov, A. Islamqulov va U. O'roqovlar 4tomonidan ham keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularning ilmiy ishlari ushbu soha rivojiga salmoqli hissa qo'shgan.5 Xususan, dotsent N. Korotina mahalliy byudjetlarning moliyaviy ahvolini baholash uchun tahliliy uslubiyatni taklif etadi. Unga ko'ra, asosiy ko'rsatkichlar quyidagi besh toifaga ajratiladi:6 byudjet muvozanatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar; mahalliy moliyaviy mustaqillik darajasini belgilovchi mezonlar; byudjet xarajatlarining yo'nalishini ko'rsatuvchi indikatorlar; byudjet barqarorligini baholovchi ko'rsatkichlar hamda mahalliy byudjetlar qarzdorlik darajasini ifodalovchi mezonlar.

Bundan tashqari, iqtisod fanlari doktori A.X. Islamqulovning ta'kidlashicha, turli darajadagi byudjetlar barqarorligini ta'minlashda va daromadlar o'rtasidagi mutanosiblikni ushlab turishda, moliya va soliq tizimi doirasidagi vakolatlarning markaziy va mahalliy darajada aniq belgilanishi muhim ahamiyatga ega. U o'z tadqiqotlarida daromad vakolatlari va xarajat majburiyatlari o'rtasidagi muvozanatli taqsimotni byudjet tizimi bo'g'inlari orasida to'g'ri tashkil etish zarurligini ilgari suradi. Bu yondashuv mahalliy byudjetlar barqarorligining huquqiy va institutsional asosini mustahkamlashga xizmat qiladi.7

Shuningdek, Q.A. Usmonov byudjet daromadlarini rejalashtirish borasida olib borgan izlanishlarida, bu jarayonning dolzarbligini ta'kidlab o'tgan. Uning fikricha, mavjud rejalashtirish tizimini yanada takomillashtirish uchun sifatli va to'liq ma'lumotlar bazasini shakllantirish zarur. Bundan tashqari, byudjet daromadlarini rejalashtirish tartibi, uslubi, muddati va jarayonda ishtirok etuvchi subyektlarning huquq va vazifalarini aniq belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish lozim.8

Professor Sh.A. Toshmatov esa, mahalliy byudjetlarning barqaror daromad manbalarini ta'minlash uchun soliqlar tushumini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni

---

3 Бабич А.М и др. Государственные и муниципальные финансы. Учебник. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2012. – 703 с; Виноградова В. Местный бюджет. Монография. – М.: Лаборатория книги. 2010. – 168 с.; Орлова Е.В. Формирование и реализация механизма обеспечения финансово-бюджетной состоятельности муниципальных образований. Автор. дисс. на соис. уч. ст. к.э.н. – Иркутск: Байкальский государственный университет. 2018. – 24 с.;

4 Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишни такомиллаштириш йўллари: И.ф.н. илм. дар. ол. уч. ёз. дисс. автор. – Т.: 2020. – 25 б.

5 Маликов Т., Ҳайдаров Н. Бюджет даромадлари ва харажатлари. – Т.: IQTISODMOLIYA, 2007. – 245 б.; Маликов Т., Олимжонов О. Молия. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2019. – 800 б.; Жўраев А. Давлат бюджети даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. – Т.: Фан, 2004. – 242 б.; Маманазаров А. Маҳаллий бюджет ва солиқ.

6 Коротина Н.Ю. Методика анализа финансового состояния бюджетов муниципальных образований//Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях. – М., 2014. – №17(353). – С.17-28


7 Исламкулов А.К.Бюджетлараро мутаносибликни таъминлашда солиқлар тизимини такомиллаштириш. И.ф.д (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс. Автореферати 2019 йил. 54 б.

8 Усмонов Қ.А. Бюджет даромадларини режалаштириш жараёни, усуллари ва уларни такомиллаштириш йўналишлари. //Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий электрон журнали. №4, июль-август, 2016.

amalga oshirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu tadbirlar orqali moliyaviy mustahkamlikka erishish mumkinligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, iqtisod fanlari nomzodi A. Xayriddinov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlashda soliq tushumlarining o'rni va ahamiyati yuzasidan chuqur ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning amaliyotga tadbiq etilishi hududiy moliyaviy mustahkamlikni oshirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Hozirgi davrda mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlash nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan ham alohida e'tibor talab qilmoqda. Ayniqsa, ESG — ekologik, ijtimoiy va boshqaruv tamoyillarini moliyaviy siyosatga integratsiyalash orqali mahalliy byudjetlarning daromad bazasini barqaror va uzoq muddatli rivojlanishga yo'naltirish mumkin. Bu tamoyillar O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Yashil taksonomiya" modeli orqali amaliyotga joriy etilmoqda.



1-RASM. O'ZBEKISTONNING YASHIL TAKSONOMIYASINI MODELLASHTIRISH[9]

Ushbu model bir necha bosqichli yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo'lib, u birinchi navbatda strategik maqsadlar bilan boshlanadi. Ular qatoriga yashil iqtisodiyot (4477- va 436-sonli farmonlar), qayta tiklanuvchi energiya (57-son qaror), atrof-muhitni muhofaza qilish (5863-son qaror), biologik xilma-xillik (484-son qaror) va qattiq chiqindilar bilan ishlash (4291-son qaror) kiradi. Mazkur hujjatlar hududlarda ekologik barqarorlikka erishish, resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni kamaytirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Modelning keyingi bosqichi ekologik maqsadlarni o'z ichiga oladi. Ular orasida iqlim o'zgarishini yumshatish (mitigatsiya), iqlimga moslashuv (adaptatsiya), suv resurslarini muhofaza qilish, aylanma iqtisodiyotni rivojlantirish, ifloslanishni oldini olish va biologik xilma-xillikni saqlash kabi dolzarb yo'nalishlar mavjud. Ushbu maqsadlar bevosita mahalliy daromadlar bazasini kengaytirish uchun yangi iqtisodiy faoliyat turlarini — xususan, ekologik toza texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash kabi sohalarni rivojlantirish imkonini beradi.

9 Guidance Note on Uzbekistan Green Taxonomy, December 2023, 66 p, 41-p.

Yashil taksonomiyadagi prinsiplar esa har qanday loyihaning ekologik maqsadlarga hissa qo‘shishi, jiddiy zarar yetkazmasligi va ijtimoiy kafolatlar bilan ta’minlangan bo‘lishi zarurligini belgilaydi. Bu esa ESG tamoyillarining ijtimoiy va boshqaruv komponentlarini chuqur aks ettiradi. Ya’ni, faqatgina moliyaviy foyda emas, balki aholining hayot sifatiga, sog‘lig‘iga, teng huquqliligiga ta’sir qiluvchi omillar ham e’tiborga olinadi.

Modelda belgilangan ustuvor sohalar — energetika, suv resurslari, sanoat jarayonlari, o‘rmon xo‘jaligi, bino va inshootlar, transport va chiqindilarni boshqarish — mahalliy darajada yangi ish o‘rinlarini yaratish, soliq bazasini kengaytirish va tadbirkorlikni rag‘batlantirish orqali byudjetga qo‘shimcha daromadlar olib kirishi mumkin.

Baholash qoidalari sifat va miqdoriy mezonlar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ular “qaror daraxti” (decision tree) va “yorug‘-svetofor” tamoyili asosida loyihalarning darajasini, barqarorligini, ekologik ta’sirini baholash imkonini beradi. Miqdoriy mezonlar esa investitsiyalarning aniqligi va samaradorligini o‘lchashda muhim vosita sifatida ishlatiladi.

Yuqorida keltirilgan “Yashil taksonomiya” modeli asosida ESG tamoyillarining mahalliy darajada tatbiq etilishi quyidagilarga xizmat qiladi:


- Mahalliy moliyaviy resurslar manbalarini diversifikatsiya qilish;
- Ekologik xavfsizlik va sog‘lom turmush tarzini ta’minlash;
- Ijtimoiy himoyani mustahkamlash;
- Soliq tushumlari barqarorligini ta’minlash;
- Raqamli boshqaruv va shaffoflik orqali byudjet xarajatlarini samarali rejalashtirish.

ESG yondashuvi asosida ishlab chiqilgan yashil taksonomiya nafaqat ekologik va ijtimoiy muammolarni hal etishda, balki mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlashda ham strategik vosita sifatida qaralmoqda. Mahalliy hokimiyat organlari va moliyaviy institutlar ushbu tamoyillarni faol qo‘llagan holda, hududlarda barqaror rivojlanish va moliyaviy mustaqillikka erishishlari mumkin.

Mahalliy byudjetlar davlat moliya tizimining eng muhim bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Ular bevosita hududiy darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda, aholining kundalik ehtiyojlariga yo‘naltirilgan infratuzilma va xizmatlarni moliyalashtirishda, shuningdek, mahalliy hokimiyatlar tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy dasturlarni qo‘llab-quvvatlashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, ta’lim, sog‘liqni saqlash, kommunal xizmatlar, ichki yo‘llar, bandlik, ekologiya kabi sohalarning moliyalashtirish hajmi ko‘p jihatdan aynan mahalliy daromadlar hajmiga bog‘liq bo‘lib, ular orqali hududiy taraqqiyot va aholi farovonligi ko‘lami belgilanadi. Soliq bazasini shakllantirish, soliqqa tortilishi kerak bo‘lgan faoliyat turlarining rasmiylashtirilishi , yashirin iqtisodiyotning darajasini pasaytirishga olib keladi.

Davlat soliq qo‘mitasining 2025-yil 1-yanvar holatiga bergan rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soni 4,4 million nafardan oshgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan sezilarli darajada — ya’ni 76,5 foizga yoki 1,9 million nafarga oshgan bo‘lib, bu o‘z navbatida ushbu ijtimoiy qatlamning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, maishiy xizmatlar, ishlab chiqarish va umumiy xizmat ko‘rsatish sohalarida o‘zini o‘zi band qilganlarning soni keskin ortgani kuzatilgan (2-rasm). Bu esa, aholining o‘zini band qilish orqali rasmiy iqtisodiy faoliyatga jalb qilinayotganini anglatadi. 2025-yil boshidagi statistik ko‘rsatkichlarga ko‘ra, mamlakat aholisining umumiy soni 37,5 milliondan oshgan. Shu asosda hisoblaganda, o‘zini o‘zi band qilganlar umumiy aholining qariyb 11,73 foizini tashkil etmoqda. Bu katta raqam bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy faol aholining salmoqli qismini ifodalaydi, balki ularning iqtisodiy va ekologik ta’sirini ham ko‘rsatadi. Ayniqsa, bu qatlam tomonidan faoliyat yuritilayotgan sohalarning aksariyati ekologik

resurslardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq bo‘lganligi inobatga olinsa, ularning tabiatga, ekologik muvozanatga va yashil iqtisodiyot tamoyillariga ta’siri bevosita ahamiyat kasb etadi.



2-rasm. O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar(2025-yil 1-yanvar holatiga) 10

Shu nuqtai nazardan qaralganda, o‘zini o‘zi band qilganlar sektorini rivojlantirish bilan birga, ularning faoliyatini ekologik standartlarga moslashtirish, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik va resurslardan oqilona foydalanish mexanizmlarini joriy etish ham zarur bo‘lmoqda. Masalan, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish, suv va energiya sarfini kamaytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish, soliq imtiyozlari yoki rag‘batlantiruvchi mexanizmlar orqali ushbu qatlamni yashil iqtisodiyot tamoyillariga yo‘naltirish mumkin. Bundan tashqari, o‘zini o‘zi band qilganlar faoliyati raqamlashtirilgan holda yuritilsa, soliq bazasi kengayadi, yashirin iqtisodiyot qisqaradi, ijtimoiy himoya va pensiya tizimiga ularning ulushi ortadi. Shu orqali nafaqat mahalliy byudjet daromadlari mustahkamlanadi, balki ESG — ekologik, ijtimoiy va boshqaruv tamoyillariga muvofiq barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish imkoniyati ham oshadi. Shuningdek, mahalliy iqtisodiy faoliyatni raqamlashtirish, soliq va moliyaviy axborotlarni shaffof yuritish, elektron nazorat mexanizmlarini joriy etish orqali fiskal intizomni kuchaytirish va byudjetga bo‘lgan ishonchni oshirish zarur. Shu bilan birga, shaffoflik soliq to‘lovchilarning davlatga nisbatan ishonchini mustahkamlab, ko‘ngilli ravishda soliq to‘lash madaniyatini shakllantiradI.

10 Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlaridan, https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/15/self-employed/


1-jadval

O‘zbekiston soliq tizimida raqamli transformatsiya jarayoni sarhisobi11

Yo'nalish	Tavsif
Raqamli transformatsiya orqali soliq tushumlarining o‘sishi	2024-yilda soliq tushumlari 199,1 trln so‘mga yetdi (20% o‘sish), 2025-yilda undan ham yuqori prognoz kutilmoqda.
Rekord darajadagi fiskal ko‘rsatkichlar	Shahar va tuman byudjetlariga tushumlar 24% ga oshdi, bu hududlar moliyaviy mustaqilligini kuchaytirmoqda.
Innovatsiyalar yordamida jarayonlarni soddalashtirish	Har kuni 9,3 mln fiskal chek, 150 ming elektron hisobvaraq qayd etiladi; 34 mln yillik elektron hujjatlar.
Avtomatlashtirilgan hisobotlar	QQS hisobotlarining 93%, mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha hisobotlarning 99% avtomatik shakllantiriladi.
Raqamli xizmatlar va mobil ilova	9,2 mln foydalanuvchi, 102 mln oylik xizmat; yangi funksiyalar: 'Mening uyim', 'Soliq biznes'.
Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlari	10 210 fuqaro – 10,5 mlrd so‘m, 135 769 fuqaro – 24,5 mlrd so‘m qaytarilgan.
Tadbirkorlikni rag‘batlantirish	Yuqori reytingli tadbirkorlar qo‘llab-quvvatlanmoqda, past reytinglilarga nisbatan jazodan voz kechilgan.
2025-yil uchun rejalar	Soliq tushumlari 224 trln so‘mga yetkazilishi rejalashtirilmoqda, raqamlashtirish kengaytiriladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda soliq boshqaruvida raqamli texnologiyalarni joriy etish davlat moliyasini boshqarishning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayon nafaqat byudjetga tushumlar hajmini oshirishda, balki fiskal shaffoflik, soliq intizomi va tadbirkorlik muhiti barqarorligini ta’minlashda ham o‘z samarasini bermoqda. 2024-yil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli transformatsiya soliq sohasida tub o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Eng avvalo, soliq tushumlarining o‘sishi raqamlashtirishning bevosita natijasi sifatida namoyon bo‘ldi. 2024-yilda respublika bo‘yicha soliq tushumlari 199,1 trillion so‘mni tashkil etdi, bu esa o‘tgan yilga nisbatan 20 foizlik o‘sishni anglatadi. 2025-yil uchun bu ko‘rsatkichning yanada yuqorilashi prognoz qilinmoqda, bu esa budjetga barqaror moliyaviy oqimni ta’minlash imkonini beradi. Yana bir muhim jihat — shahar va tuman byudjetlariga tushumlar hajmining 24 foizga oshgani. Bu esa hududiy darajada moliyaviy mustaqillikning ortishiga xizmat qilib, mahalliy byudjetlar orqali ijtimoiy va iqtisodiy loyihalarni mustaqil moliyalashtirish imkonini kengaytirmoqda.

11 Soliq qo’mitasi ma’lumotlaridan



3-rasm. Respublika bo‘yicha 2018-2022-yillarda pullik xizmat ko‘rsatuvchi shoxobchalarga o‘rnatilgan nazorat kassa texnikasi va virtual kassalar soni hamda ularga kirim qilingan summalar (mlrd.so‘mda)12

O‘rganilgan tahlillarga ko‘ra, 2022-yil davomida naqd pul va to‘lov terminallari orqali amalga oshirilgan tovar aylanmasi umumiy hisobda 405,1 milliard so‘mni tashkil etgan. Ushbu raqam 2018-yilga nisbatan 303,6 milliard so‘mga, 2019-yil bilan solishtirganda 287,4 milliard so‘mga, 2020-yilga nisbatan esa 211,4 milliard so‘mga ortgan. 2021-yilga nisbatan esa bu ko‘rsatkich 134,7 milliard so‘mga ko‘p bo‘lgan. Shuningdek, onlayn nazorat-kassa uskunalarini xarid qilish uchun belgilangan narx 3 million so‘mni tashkil etadi. Mazkur uskunalarni bank terminal tizimiga ulashda esa bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) bir baravari miqdorida qo‘shimcha to‘lov amalga oshirilishi lozim. Ustiga-ustak, har oyda o‘rtacha 100 ming so‘m atrofida abonent to‘lovi ham doimiy tarzda to‘lab borilishi talab etiladi. Biroq, ushbu tizimni joriy etishda shuni hisobga olish kerakki, mamlakatda faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning daromadlari va tovar aylanmalari bir xil emas. Ayniqsa, kichik hajmdagi savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun mazkur onlayn kassa tizimlarini saqlash va undan foydalanish bilan bog‘liq muntazam xarajatlar moliyaviy bosim sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Bu esa ularning rentabelligiga salbiy ta’sir etishi ehtimoldan xoli emas.

Bundan tashqari, yashil energiya, ekologik turizm va barqaror ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish orqali yangi va istiqbolli daromad manbalarini yaratish lozim. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan loyihalarni yo‘lga qo‘yish, hududlarda ekologik infratuzilma (chiqindilarni qayta ishlash, energiya tejamkor texnologiyalar, ekologik sertifikatlash) rivojlanishini rag‘batlantirish orqali ekologik barqarorlik bilan birga moliyaviy resurslar oqimini ham ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Yana bir muhim yo‘nalish — bu davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida loyihalarni amalga oshirish**dir**. Ushbu model orqali davlat va xususiy sektor o‘z resurslarini birlashtirib, infratuzilma, sog‘liqni saqlash, ta’lim, transport va boshqa sohalarda birgalikda samarali loyiha

12 https://www.soliq.uz// rasmiy saytidagi ma’lumotlar asosida tayyorlandi

yuritishi mumkin. Bu esa mahalliy hokimiyatlar zimmasidagi moliyaviy yukni kamaytirish, byudjetga bevosita daromadlar va bilvosita soliqlar shaklida foyda keltiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mahalliy byudjet daromadlari bazasini mustahkamlash bugungi kunda nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki hududiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ekologik xavfsizlik va boshqaruv shaffofligini ta’minlashda ham hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Ayniqsa, ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) tamoyillarining mahalliy moliyaviy siyosatga integratsiyalashuvi daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, soliq bazasini kengaytirish, yangi investitsiya oqimlarini jalb qilish hamda barqaror moliyaviy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda joriy etilgan “Yashil taksonomiya” modeli orqali ekologik yo‘nalishdagi loyihalarni ustuvorlashtirish, resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda ijtimoiy adolat va boshqaruvda shaffoflikni kuchaytirish orqali byudjetga tushumlar hajmini oshirish uchun qulay sharoit yaratilmoqda. Ayniqsa, energetika, suv resurslari, ekologik sanoat, transport va chiqindilarni boshqarish kabi ustuvor sohalarda mahalliy iqtisodiy faollikni kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va soliq bazasini chuqurlashtirish mumkin. Shuningdek, raqamli transformatsiya orqali soliq ma’lumotlarini avtomatik yig‘ish va qayta ishlash, elektron hisobvaraq-faktura, fiskal nazorat tizimlarining keng joriy etilishi fiskal shaffoflikni oshirish bilan birga soliq intizomini mustahkamlab, byudjetga barqaror tushumlar shakllanishiga xizmat qilmoqda. 2024-yilda erishilgan fiskal ko‘rsatkichlarning o‘sishi — bu boradagi islohotlarning amaliy natijasi sifatida qaraladi. Xususan, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. ESG tamoyillarini mahalliy darajada huquqiy asosda mustahkamlash — yashil byudjetlashtirish, ekologik investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va mahalliy boshqaruvga ESG mezonlarini integratsiya qilish bo‘yicha aniq me’yorlar ishlab chiqilishi lozim.
2. Yashirin iqtisodiyotni legallashtirish va o‘zini o‘zi band qilganlarni rasmiylashtirish orqali soliqqa tortish bazasini kengaytirish. 4,4 mln nafar o‘zini o‘zi band qilganlar segmenti mahalliy moliyaviy barqarorlik uchun katta potensialga ega.
3. Soliq va mol-mulk baholash tizimini modernizatsiya qilish — yer va mulklar real qiymat asosida raqamli kadastr orqali baholanib, soliqlar shaffof va adolatli undirilishi ta’minlanishi zarur.
4. Mahalliy iqtisodiy faoliyatda raqamlashtirishni chuqurlashtirish — nazorat-kassa mashinalari va virtual kassalarni joriy etishda kichik tadbirkorlik subyektlariga subsidiya va imtiyozlar berilishi mumkin.
5. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini kengaytirish — transport, ta’lim, sog‘liqni saqlash va infratuzilma sohalarida xususiy sektor ishtirokini oshirish orqali mahalliy byudjet yukini kamaytirish va yangi tushumlar shakllantirish imkoniyati mavjud.
6. Yashil iqtisodiyotga doir loyiha va dasturlarni soliq imtiyozlari orqali rag‘batlantirish — bu nafaqat ekologik foyda, balki moliyaviy resurslarni jalb qilishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ESG tamoyillariga asoslangan yondashuv mahalliy daromadlar bazasini mustahkamlashda zamonaviy, kompleks va strategik vosita sifatida qaralishi lozim. Bu nafaqat moliyaviy o‘zini o‘zi ta’minlashni kuchaytiradi, balki aholining yashash sifati va ijtimoiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index:* *google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

1. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03/25/1038/0188-son
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 30.12.2022-yildagi O‘RQ-813-son va 25.12.2023-yildagi O‘RQ-886-son Qonunlari
3. O‘zbekiston Respublikasining 24.12.2018 yildagi “Soliq va budjet siyosatining 2019 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-508 son Qonuni.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabr, 223-sonli “Hududlarda yuqori iqtisodiy o’sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo’lga qo’yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoniga
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" Qarori, 21.02.2022 yildagi 83-son
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2021 y.
7. Achilov U.U. “Byudjet tasnifi” fanidan o’quv-uslubiy majmua.—T.: TMI, 2019.
8. G‘aybullayev O., O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Baktria press”, 2016 y.
9. Nurmuxamedova B.I. Davlat budjeti. Darslik. – T.: “IQTISOD MOLIYA”, 2018. -630 b.
10. Uroqov Uchqun, Yuldasheva Nadira, Nuritdinova Vasila, Tukhtabayeva Sogdiana. Budgetary methods for local budgets. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. DOI: 10.5373/JARDCS/V12I6/ S20201165
11. Uroqov Uchqun. Increasing the independence of local budgets in the social and economic development of the regions. // International Journal of Economics, Commerce and Management. United Kingdom ISSN 2348 0386 Vol.VII, Issue12, December 2019
12. Uchqun O‘roqov, Ilhom Irgashev, Orzimurod G‘aybullayev “Fuqarolar ishtirokidagi mahalliy byudjet” 2022
13. Guidance Note on Uzbekistan Green Taxonomy, December 2023, 66 p, 41-p.
14. Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlaridan, https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/15/self-employed/
15. https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs